

## ANALYSIS OF FOREIGN TRADE TURNOVER OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (1991-2015)

*Yulduz D. Kasimova*

*Master's student*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** trade turnover, financial and economic crisis, export volume, positive balance, diversification, competition, economic changes.

**Abstract:** In this article, the foreign trade turnover of the Republic of Uzbekistan from the first years of independence to 2015 was studied and analyzed.

**Received:** 12.12.22

**Accepted:** 14.12.22

**Published:** 16.12.22

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI TAHLILI (1991-2015)

*Yulduz D. Qosimova*

*Magistratura talabasi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** savdo aylanmasi, moliyaviy-itisodiy inqiroz, eksport hajmi, ijobiy saldo, diversifikatsiya, raqobat, konyunkturaviy o'zgarishlar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston respublikasining mustaqillikni dastlabki yillaridan to 2015 yilgacha bo'lgan davrlarda tashqi savdo aylanmasi o'rganilgan va tahlil qilingan.

## АНАЛИЗ ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (1991-2015 ГГ.)

*Юлдуз Д. Касимова*

*студент магистратуры*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** товарооборот, финансово-экономический кризис, объем изучен

**Аннотация:** В данной статье был и проанализирован

экспорта, положительное сальдо, внешнеторговый оборот Республики диверсификация, конкуренция, Узбекистан с первых лет независимости до экономические изменения. 2015 года.

### KIRISH

Respublikamizning 2015 yilgacha bo'lgan davrda tashqi savdo aylanmasi muttasil o'sib bordi. Jumladan, bu ko'rsatkich 2000 yilda 6 212,1 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib 25 283,2 mln. AQSH dollariga yetdi yoki 2000 yilga nisbatan 4,1 martaga o'sdi. Jahonda yuz bergan moliyaviy-itstisodiy inqiroz ta'sirida ko'pchilik mamlakatlarda eksport hajmining qisqarishi kuzatilgan bir sharoitda respublikamizning eksporti 2000-2015 yillar davomida 3 264,7 mln. AQSH dollaridan 12 870,3 mln. AQSH dollarigacha yoki 3,94 martaga oshdi. Tahlil etilayotgan davr oralig'ida mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasida muttasil ijobiy saldogga erishilgan.

### ASOSIY QISM

2000-2015 yillar davomida eksportni diversifikatsiya qilish, uning tarkibini yaxshilash borasida amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi (7.1.1-rasm).

O'tgan 2000-2015 yillar oralig'ida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida paxta tolasi salmog'i 27,5 dan 5,7 % ga kamaygani holda oziq-ovqat tovarlari 5,4 % dan 10,2 % ga, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 2,9 % dan 4,8 % ga, energiya manbalari va neft mahsulotlari 10,3 % dan 25,9 % ga va xizmatlar 13,7 % dan 24,5 % ga oshdi.

2008 yil va undan keyingi davrda dunyoda yuz bergan hamda uzoq davom etgan va tashqi bozorlardagi holatga salbiy ta'sir ko'rsatib, quyidagi holatlarda namoyon bo'ldi:

- tashqi bozorlarda talabning pasayishi va raqobatning keskinlashuvi;
- jahon bozorlarida shakllanayotgan nomaqbul konyunkturaviy o'zgarishlar;
- asosiy savdo hamkorlari hisoblangan davlatlarda milliy valyutalarning qadrsizlanishi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, eksportning tovar tarkibini diversifikatsiyalash borasida izchillik bilan amalga oshirilgan chora- tadbirlar samarasi tashqi savdo, xususan, eksport hajmining oshishi va uning tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berganida o'z aksini topdi.


### 7.1.1 - j a d v a l

#### O'zbekiston Respublikasining 2000-2015 yillardagi tashqi savdo aylanmasi tarkibi, mln. AQSH dollarida

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015
TASHQI SAVDO AYLANMACI, JAMI	6	9	22	25
Sh.j. EKSPORT JAMI	3	5	13	12

Tashqi savdo aylanmasida eksport salmog'i, % da	52,6	56,9	58,7	50,9
Jami eksportga nisbatan, % da	100	100	100	100
Paxta tolasi	27,5	19,1	12,1	5,7
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,8	9,7	10,2
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	2,9	5,3	5,1	4,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	10,3	11,5	22,8	25,9
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	6,9	6,4
Mashina va asbob-uskunalar	3,4	8,4	5,5	1,2
Xizmatlar	13,7	12,2	10,2	24,5
Boshqalar	30,2	30,5	27,7	21,3
IMPORT, JAMI	2	4	9	12
Tashqi savdo aylanmasida import salmog'i, % da	47,4	43,1	41,3	49,1
Jami importga nisbatan, % da	100	100	100	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	7,0	10,5	12,8
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	13,6	13,6	13,8	17,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,8	2,5	7,1	5,8
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	8,1	7,4
Mashina va asbob-uskunalar	35,4	43,3	44,0	40,5
Xizmatlar	8,5	10,4	5,3	7,7
Boshqalar	17,8	12,9	11,2	8,8
EKSPORT-IMPORT saldosi	+	+ 1	+ 3	+

Ma'naba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha yillik statistik to'plamlari asosida tuzilgan.



7.1.2-rasm. Ўзбекистон Республикасининг 2015 йилдаги ҳудудий экспорт дастури бажарилиши кўрсаткичлари

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining ma'lumotlariga qaraganda 2015 yilda hududiy eksport dasturining ijrosi 2 887,2 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, eksport tarkibining 1 261,5 mln. dollarini yoki 43,7 foizini xizmatlar, 1 117,9 mln. dollari yoki 38,7 foizi meva-sabzavotlar hamda 507,8 mln. dollar yoki 17,6 foizini sanoat mahsulotlari tashkil etgan (7.1.2-rasm).

Ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston yengil sanoati korxonalari 1994 yildan buyon o'z mahsulotlarini eksportga yetkazib bermoqda. O'sha paytda eksport hajmi atigi 8 million AQSH

dollarini tashkil etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilda ushbu ko'rsatkich bir milliard dollardan oshdi va bu 2014 yilga nisbatan 5 foiz ko'p demakdir. Bugungi kunda yarim tayyor va boshqa turdagi to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib berish 10 % ga, yuqori qo'shimcha qiymatga ega to'qimachilik mahsulotlari eksporti 19 % ga oshdi. 2015 yildan yengil sanoat korxonalarini xorijiy mamlakatlarga modal va aralash kalava, tayyor tikuvchilik buyumlarining yangi turlari eksportini yo'lga qo'ydi.

O'sha yillarda mamlakatimiz yengil sanoati mahsulotlarini Xitoy, Rossiya, Qozogiston, Turkiya, Yevropa ittifoqi davlatlari xarid qilgan. Tarmoq korxonalarini o'z mahsulotlarini dunyoning qariyb 45 mamlakatiga eksport qilgan<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda eksportning geografik tarkibini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarga kirib borish va ularda mamlakatimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatida, eksportning geografik tarkibini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi (7.1.2-jadval).

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibida MDH mamlakatlarining ulushi 2000-2015 yillar oralig'ida 37,0 % dan 50,9% gacha, eksport tarkibida 35,9 % dan 43,1 % gacha oshgani holda, import tarkibida ularning salmog'i 38,2 % dan 34,8 % gacha kamaydi.

Mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibida boshqa xorijiy mamlakatlar ulushi 2000-2015 yillar oralig'ida 63,0 % dan 49,1 % gacha, eksport tarkibida 64,1 % dan 56,9 % gacha pasaygani holda, import tarkibida ularning salmog'i 61,8 % dan %gacha oshdi (7.1.2-jadval).

### 7.1.2 -jadval

#### O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining mamlakatlar guruhi bo'yicha geografik tarkibi, mln. AQSH dollarida

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2005 yil	2010 yil	2015 yil
Tashqi savdo aylanmasi	6 212,1	9 500,1	22 199,2	25 283,2
- MDH davlatlari	2 297,8	3 403,4	9 369,2	9 863,4
- boshqa davlatlar	3 914,3	6 096,7	12 830,0	15 419,8
Eksport	3 264,7	5 408,8	13 023,4	12 870,3
- MDH, davlatlari	1 172,2	1 722,6	5 647,7	5 546,1
- boshqa davlatlar	2 092,5	3 686,2	7 375,7	7 324,2
Import	2 947,4	4 091,3	9 175,8	12 412,9
- MDH davlatlari	1 125,6	1 680,8	3 721,5	4 317,3
- boshqa davlatlar	1 821,8	2 410,5	5 454,3	8 095,6
Saldo	317,3	1 317,5	3 847,6	457,4
- MDH davlatlari	46,6	41,8	1 926,2	1228,8
- boshqa davlatlar	270,7	1275,7	1 921,4	- 771,4

Tashqi savdo aylanmasi tarkibi, % da:	100	100	100	100
- MDH davlatlari	37,0	35,8	42,2	50,9
- boshqa davlatlar	63,0	64,2	57,8	49,1
Eksport tarkibi, % da:	100	100	100	100
- MDH davlatlari	35,9	31,8	43,4	43,1
- boshqa davlatlar	64,1	68,2	56,6	56,9
Import tarkibi, % da:	100	100	100	100
- MDH davlatlari	38,2	41,1	40,6	34,8
- boshqa davlatlar	61,8	58,9	59,4	65,2

M a n b a: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi statistik to‘plamlari va [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini Avstriya, Germaniya, Koreya, Bolgariya, Litva, Xitoy, Rossiya, Ukraina, Turkiya, Polsha singari 20 dan ortiq mamlakatlarda ishlab chiqarilgan texnologik uskunalardan foydalanmoqda. Bu holat mahsulot eksporti miqdorining barqaror o‘shib borishini ta’minlamoqda. Agar 1990 yillar boshida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar faqat 5 ta davlatga eksport qilingan bo‘lsa, 2015 yilga kelib ular Rossiya, Braziliya, Germaniya, Latviya, Litva, Koreya, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi 80 dan ortiq davlatlarga eksport qilingan. Faqatgina oxirgi 10 yilda meva sharbatlari eksporti 2 martaga, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari eksporti o‘rtacha 1,5 barobarga ko‘paydi, eksport qilinayotgan mahsulotlarning tashqi bozordagi narxlari esa 6 martaga ortdi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti tomonidan ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini keskin oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiasini yanada kengaytirish kontseptsiyasi eksport hajmini barqaror o‘stirish, tashqi bozorlardagi nomaqbul konyunkturaviy o‘zgarishlar ta’sirida uning hajmini keskin kamayib ketishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining jahon itisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi asosida yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan yangi turdagi tashqi itisodiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligi nafaqat yangicha korxonalarini tashkil etish balki, mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirish shuningdek, yuqori qiymat ulushiga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta’minlovchi yangi, zamonaviy, ilg‘or korxonalarini tashkil etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo munosabatlarini erkinlashtirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekiston 2015 yilga kelib 45 dan ortiq mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo aloqalariga ega bo‘ldi. Tashqi savdo hajmi 1991 yildagi 2,1 mlrd dollardan 2013 yilda 28,9 mlrd. dollar hajmiga yetdi. Ayni yillarda tovarlar va xizmatlar

eksporti 15,1 mlrd. dollarni, importi 13,8 mlrd. dollarni, tashqi savdo saldosini 1,3 mlrd dollarni tashkil etdi.

#### O'zbekiston eksporti tovar tarkibi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

Mahsulot nomlari	1990	2000	2013
<b>Eksport jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Paxta tolasi	59,7	27,5	7,7
Kimyo mahsulotlar	2,3	2,9	4,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	9,8
Yoqilg'i va neft mahsul	17,1	10,3	31,1
Qora va rangli metallurgiya	4,6	6,6	6,3
Mashina va uskunalari	1,7	3,4	5,5
Xizmatlar	1,3	13,7	16,2
Boshqalar	9,4	30,2	19,4

Bu ko'rsatkichlar barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi.

#### O'zbekiston importi tovar tarkibi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

Mahsulot nomlari	1990	2000	2013
<b>Eksport jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Kimyo mahsulotlari	9,7	13,6	14,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	9,7
Yoqilg'i va neft mahsul	3,1	3,8	7,3
Qora va rangli metallurgiya	4,6	6,6	6,3
Mashina va uskunalari	10,2	8,6	7,9
Xizmatlar	1,5	8,5	5,8
Boshqalar	14,5	17,8	10,9

#### O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi (% hisobida)

Mamlakatlar	1990	2010	2012
-Uzoq xorij mamlakatlari	39,9	56,9	52,8
-MDH mamlakatlari	60,1	43,1	47,2
<b>Eksport</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
-Uzoq xorij mamlakatlari	37,7	54,8	45,7
-MDH mamlakatlari	62,3	45,2	54,3
<b>Import</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
-Uzoq xorij mamlakatlari	42,6	59,9	61,2
-MDH mamlakatlari	57,4	40,1	38,8

Mamlakat eksportini 36,3 % i Rossiyaga; 11,8 % Qozog'istonga; 10,3 % Xitoyga; 6 % Turkiyaga; 7,5 % Afg'onistonga to'g'ri kelgan. Mamlakat importini 20,4 % Rossiyaga; 16,8 % Koreyaga; 14,7 % Xitoyga; 8,9 % Qozog'istonga; 3 % Turkiyaga; 6,3 % Afg'onistonga; 5,5 % Ukrainaga to'g'ri kelgan.

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar

geografiyasining kengayishi eksport xajmining barqaror bo'lishini ta'minladi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zgarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytirdi.

### XULOSA

Keyingi yillarda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xomashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutilib, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish tendensiyasi kuzatildi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan yana bir yo'nalish - mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, eksport salohiyatini mustagkamlash bo'yicha qabul qilingan amaliy choralar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, 2009 yilda mamlakatimizda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan edi. Xususan:

- aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 % dan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish:

- tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan, qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno, ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

- banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko'rib chiqish. Byudjetga to'lanadigan to'lovlarni penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz hamda preferensiyalar berish shular jumlasidandir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi statistik to'plam ma'lumotlari
2. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)